

“TASDIQLAYMAN”

Qo'qon universiteti direktori

G. Zaxidov

2024-yil

**QO'QON UNIVERSITETI TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH
DEPARTAMENTI (TSNQD) tomonidan o'quv jarayoni sifatini baholash
va tahlil qilish bo'yicha 2022–2023 va 2023–2024 o'quv yillari
amalga oshirilgan ishlar haqida
MA'LUMOT**

I. BAHOLASH TIZIMINING TASHKIL ETILISHI

1.1. Baholash komissiyasi tuzilishi.

Har ikki o'quv yilida ham o'quv jarayoni sifatini baholash bo'yicha Direktor buyrug'i bilan rasmiy Baholash komissiyasi tuzildi. Komissiya tarkibi xolis va vakolatli shakllantirildi.

Lavozim	2022–2023	2023–2024
Komissiya raisi (Akademik ishlar bo'yicha prorektor)	Tayinlangan, buyruq	Tayinlangan, buyruq
TSNQD boshlig'i (kotib)	Ishtirok etdi	Ishtirok etdi
Akademik ishlar departamenti boshlig'i	Ishtirok etdi	Ishtirok etdi
Registrator ofisi boshlig'i	Ishtirok etdi	Ishtirok etdi
HR departamenti boshlig'i	Ishtirok etdi	Ishtirok etdi
Yuristkonsult	Ishtirok etdi	Ishtirok etdi
Fakultet dekanati vakillari	2 fakultet (2 vakil)	2 fakultet (2 vakil)
Tashqi ekspert	Jalb etilmagan	Jalb etilmagan
Jami komissiya a'zolari soni	8 kishi	8 kishi

1.2. Baholash davriyligiga rioya etilishi.

Ta'lim sifatini ichki ta'minlashning tizimi samaradorligini baxolash tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan uch pog'onali davriylik (oylik, yarim yillik, yillik) to'liq amalga oshirildi:

Baholash turi	2022–2023 o'quv yili	2023–2024 o'quv yili	Izoh
Oylik monitoring	9 marta	9 marta	Har oyning oxirgi ish kunida
Yarim yillik ichki audit	2 marta	2 marta	Kuzgi va bahorgi semestr oxirida
Yillik kompleks baholash	1 marta	1 marta	O'quv yili yakunida

Jami baholash sikllari	12	12	Oylik + semestr + yillik
Baholash grafikiga rioya etilishi	100%	100%	Bir marta ham kechiktirilmadi

Ikkala o'quv yilida ham baholash grafigi to'liq bajarildi – birorta semestrlik yoki yillik monitoring o'tkazilmay qolmadi.

II. OYLIK MONITORING – AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

2.1. Oylik monitoring ko'rsatkichlari.

Har oylik monitoring doirasida quyidagi ko'rsatkichlar to'plandi, tahlil qilindi va direktor/prrektorga taqdim qilindi:

Ko'rsatkich	2022–2023 (o'rtacha)	2023–2024 (o'rtacha)	O'zgarish
Umumiy davomat foizi (%)	90,6%	91,1%	+ 0,5%
O'tilmagan darslar ulushi (%)	4,6%	4,5%	– 0,1%
HEMIS/HeRo tizimida aktiv foydalanuvchi foizi	95%	96%	+ 1%
Oyda kelib tushgan talaba murojaatlari (o'rtacha)	46 ta	45 ta	– 2%
Intizomiy holatlar soni (o'rtacha)	20 ta	18 ta	– 10%
O'qituvchi murojaatlari (o'rtacha)	14 ta	14 ta	-

2.2. Tezkor choralar.

Oylik monitoring natijalariga ko'ra tezkor choralar belgilandi va ijro etildi:

– 2022–2023 o'quv yilida: 20 ta tezkor topshiriq (buyruq yoki xizmat yozishmasi shaklida) berildi, shundan 16 tasi belgilangan muddat ichida bajarildi (80%);

– 2023–2024 o'quv yilida: 21 ta tezkor topshiriq berildi, shundan 17 tasi muddatida bajarildi (83%);

– Har oylik monitoring yakunida TSNQD direktorga qisqa monitoring hisoboti taqdim etdi – jami 2023–2025 yillarda 18 ta oylik hisobot rasmiylashtirildi.

III. DARS KUZATUVI VA TAHLILI

3.1. O'tkazilgan dars kuzatuvlari.

Nizomga muvofiq har bir o'qituvchi bo'yicha semestrda kamida 1 marta dars kuzatuv standard chek-list asosida amalga oshirildi:

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
Jami o'qituvchilar soni	103 kishi	122 kishi
Dars kuzatuv o'tkazilgan o'qituvchilar soni	99 kishi (96%)	116 kishi (94%)

Jami o'tkazilgan dars kuzatuvlari (semestr×o'qituvchi)	201 ta	232 ta
O'rtacha ball (100 ballik tizimda)	71,3 ball	72,7 ball
75 balldan yuqori natija olgan o'qituvchilar ulushi	71%	69%
Qayta kuzatuv o'tkazilganlar soni	35 ta	39 ta
Qayta kuzatuvda natija yaxshilanganligi	32 ta (91%)	35 ta (90%)
Chek-list bilan rasmiylashtirilgan dalolatnomalar	201 ta	232 ta

3.2. Dars kuzatuvlari bo'yicha individual tavsiyalar.

Har bir kuzatuvdan so'ng o'qituvchiga individual tavsiyalar taqdim etildi:

- 2022–2023: 99 ta o'qituvchiga individual tavsiya berildi; shundan 97 tasi (97%) tavsiyalarni keyingi kuzatuvga qadar amalga oshirdi;
- 2023–2024: 116 ta o'qituvchiga tavsiya berildi; shundan 112 tasi (97%) tavsiyalarni bajarganligini qayta kuzatuvda tasdiqladi;
- Asosiy qayd etilgan muammolar: talabalarining dars vaqtida telefondan foydalanishi (39%), faol o'qitish metodlaridan yetarlicha foydalanmaslik (24%), dars yakunida mustahkamlash ishlarining yo'qligi (18%).

IV. SO'ROVNOMALAR – O'TKAZILISHI VA NATIJALARI

4.1. Talabalar qoniqish so'rovnomasi.

Nizomning 5-ilovasida belgilangan minimal standartlarga muvofiq (har semestrda, qamrov $\geq 60\%$) talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi:

Ko'rsatkich	2022–2023 kuzgi	2022–2023 bahorgi	2023–2024 kuzgi	2023–2024 bahorgi
Jami talabalar soni	2 081	2 081	4 847	4 847
So'rovnomada ishtirok etganlar	1 498 (72%)	1 457 (70%)	3 344 (69%)	3 393 (70%)
Qoniqish indeksi (5 ballik)	3,4	3,5	3,5	3,7
O'qituvchi faoliyatidan qoniqish (%)	72%	72%	73%	74%
O'quv muhiti va resurslardan qoniqish (%)	95%	96%	95%	95%
So'rovnoma natijasi CAPA ga kiritilganmi?	Ha	Ha	Ha	Ha

4.2. Pedagogik monitoring so'rovnomasi (talabalar tomonidan o'qituvchini baholash)

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
So'rovnoma o'tkazilgan semestrlar soni	2 ta semestr	2 ta semestr

Ishtirok etgan talabalar ulushi	80%	78%
O'rtacha o'qituvchi reytingi (5 ballik)	3,91	3,97
Reyting 3,0 dan past bo'lgan o'qituvchilar	10 kishi (8,9%)	13 kishi (8,3%)
Past reytingli o'qituvchilar bilan ishlash choralari	Individual suhbat, qayta dars kuzatuvi	Individual suhbat, qayta dars kuzatuvi

4.3. Ish beruvchilar so'rovnomasi

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
Jalb etilgan ish beruvchilar soni	19 ta tashkilot	19 ta tashkilot
Bitiruvchilar kasbiy tayyorgarligi baholanishi (5 ball)	3,79	3,91
Amaliy ko'nikmalardan qoniqish (%)	70%	73%
Dastur mazmuniga tavsiyalar berilganmi?	Ha – 9 ta tavsiya	Ha – 8 ta tavsiya
Tavsiyalar o'quv dasturiga kiritilganmi?	7 ta kiritildi	6 ta kiritildi

4.4. Bitiruvchilar so'rovnomasi

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
Bitiruvchilar soni	274 kishi	931 kishi
So'rovnomada ishtirok etganlar	244 kishi (89%)	811 kishi (86%)
Ish topgan bitiruvchilar (6–12 oy ichida)	73%	76%
O'z mutaxassisligi bo'yicha ishlovchilar ulushi	62%	64%
Ta'limdan umumiy qoniqish darajasi (5 ball)	3,82	3,79

V. HUJJATLAR AUDITI – SILLABUSLAR, O'QUV REJALAR, IMTIHON TARTIBI

5.1. Sillabuslar va o'quv hujjatlari tekshiruvi

Har semestrda Akademik ishlar departamenti (AID) va TSNQD birgalikda barcha fanlar bo'yicha sillabuslarning to'liqligi va sifatini tekshirdi:

Ko'rsatkich	2022–2023 kuzgi	2022–2023 bahorgi	2023–2024 kuzgi	2023–2024 bahorgi
Tekshirilgan fanlar soni	95	103	110	112
To'liq rasmiylashtirilgan sillabuslar ulushi	100%	100%	100%	100%

Baholash mezonlari aniq ko'rsatilgan sillabuslar	100%	100%	100%	100%
Akademik halollik bandi mavjud sillabuslar	100%	100%	100%	100%
Qayta rasmiylashtirishga yuborilgan sillabuslar	0 ta	0 ta	0 ta	0 ta
O'quv reja DTS bilan moslik dalolatnomasi	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud

5.2. Imtihon jarayoni nazorati.

Imtihon tizimiga oid quyidagi ishlar bajarildi:

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
Imtihon jadvali va komissiya buyruqlari	Mavjud, o'z vaqtida	Mavjud, o'z vaqtida
Savollar banki mavjud bo'lgan fanlar ulushi	98%	98%
Moderatsiya o'tkazilgan fanlar ulushi	66%	68%
Apellyatsiya arizalari soni	3 ta	2 ta
Ko'rib chiqilgan apellyatsiyalar (muddatda)	3 ta	2 ta
Ball o'zgartirilgan apellyatsiyalar soni	0 ta	0 ta
Imtihon intizomi buzilishi holatlari	12 ta	11 ta
Intizom holatlari bo'yicha komissiya qarorlari	12 ta	11 ta

VI. TALABA NATIJALARI MONITORINGI

6.1. Akademik progress ko'rsatkichlari.

Registrator ofisi bilan hamkorlikda HEMIS tizimidan olingan ma'lumotlar asosida har semestrda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi:

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
O'rtacha GPA (universitet bo'yicha)	69,4	68,8
Fail bo'lgan talabalar ulushi (%)	12,9% (267 nafar)	13,4% (581 nafar)
Kursdan kursga o'tish ko'rsatkichi (%)	93,8 %	94,1 %
Bitiruv imtihonida ishtirok etish ko'rsatkichi	94,3 %	93,9 %
Bitiruv imtihonida muvaffaqiyat ko'rsatkichi	92,2 %	92,5 %

6.2. Davomat nazorati

– Har oy HEMIS tizimidan davomat ma'lumotlari eksport qilindi va tahlil qilindi;

- Davomat 50% dan past bo‘lgan talabalar (2022–2023: 66 kishi; 2023–2024: 71 kishi) bo‘yicha dekanat ogohlantirish xatlari yubordi;
- O‘tilmagan darslar ulushi: 2022–2023 yili 3,7% – normadan yuqori (3%); 2023–2024 yili 3,9% – normaga erishildi;
- O‘tilmagan darslarni qoplash tartibi joriy etildi: 2022–2023 yili 100% dars qoplandi, 2023–2024 yili 100%.

VII. PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR SALOHIYATINI OSHIRISH

7.1. Malaka oshirish ishlari

Ko‘rsatkich	2022–2023	2023–2024
Malaka oshirish kursidan o‘tgan o‘qituvchilar soni	18 kishi (92%)	126 kishi (92%)
Shu jumladan: xalqaro sertifikatlar	-	-
Shu jumladan: milliy kurslar	18 kishi	126 kishi
3 yillik malaka oshirish normasiga rioya etilishi	Monitoring boshlandi	Monitoring boshlandi
Metodik seminarlar (ichki treninglar) o‘tkazildi	5 marta	5 marta
Treninglarda ishtirok etgan o‘qituvchilar	82 kishi (64%)	98 kishi (68%)

7.2. Ilmiy daraja va unvon dinamikasi

Ko‘rsatkich	2022–2023	2023–2024
Ilmiy darajali o‘qituvchilar ulushi (%)	21 %	25 %
Doktorlik dissertatsiyasi himoya qilganlar	2 kishi	2 kishi
Monografiya nashr etgan o‘qituvchilar	2 kishi	2 kishi
Xalqaro jurnallarda maqola chop etganlar	19 kishi	28 kishi

VIII. HISOBOTLAR VA HUJJATLASHTIRISH TIZIMI

8.1. Rasmiy hisobotlar tayyorlandi va tasdiqlandi

Hisobot turi	2022–2023	2023–2024	Tasdiqlash shakli
Oylik monitoring hisoboti	9 ta	9 ta	TSNQD imzosi, elektron arxiv
Yarim yillik sifat hisoboti (tahliliy)	2 ta	2 ta	Prorektor imzosi, Ilmiy kengash
Yillik kompleks sifat hisoboti	1 ta	1 ta	Direktor buyrug‘i
CAPA rejalari (tuzatish va oldini olish)	15 ta	13 ta	Direktor buyrug‘i
Dars kuzatuv dalolatnomalari	201 ta	232 ta	Kafedra arxivi

So'rovnoma xulosalari	4 ta	4 ta	TSNQD tahliliy xulosasi
Nomuvofiqliklar reyestri	1 ta (yillik)	1 ta (yillik)	TSNQD

8.2. Elektron arxiv holati

- 2022–2023 o'quv yiliga oid barcha dalil hujjatlar elektron arxivga joylashtirildi – jami 371 ta fayl (buyruqlar, bayonnomalar, so'rovnoma natijalari, chek-listlar, HEMIS eksportlari);
- 2023–2024 o'quv yiliga oid arxiv shakllantirilmoqda – may oyi holatiga ko'ra 312 ta fayl joylashtirilgan;
- Hujjatlarga kirish huquqi vakolatlar darajasi bo'yicha differensiallashtirilgan;
- Saqlash muddati: kamida 5 yil – 2029-yilgacha.

IX. NOMUVOFIQLIKLAR VA CAPA ISHLARI

9.1. Aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning tasnifi

Nomuvofiqlik turi	2022–2023	2023–2024	Dinamika
Katta nomuvofiqliklar (DTS, adolat buzilishi)	4 ta	3 ta	–25%
Kichik nomuvofiqliklar (hujjatlash, tartib)	35 ta	33 ta	–6%
Jami nomuvofiqliklar	39 ta	36 ta	–8%
Shundan: D toifa (0–59 ball) bo'linmalar	2 ta kafedra	2 ta kafedra	-
Shundan: C toifa (60–74 ball) bo'linmalar	2 ta kafedra	2 ta kafedra	-

9.2. CAPA rejalarining ijrosi

Aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha CAPA rejaları tuzildi va ijrosi nazorat qilindi:

Ko'rsatkich	2022–2023	2023–2024
Tuzilgan CAPA rejaları soni	16 ta	15 ta
Belgilangan muddat ichida bajarildi	14 ta (87%)	12 ta (80%)
Muddat kechiktirildi (xizmat bildirishnomasi berildi)	2 ta	3 ta
Qayta audit o'tkazildi	16 ta (100%)	15 ta (100%)
Qayta auditda ijobiy natija	14 ta (80%)	12 ta (80%)
Qo'shimcha kuchaytirilgan nazorat o'rnatildi	2 ta bo'linma	2 ta bo'linma

9.3. Asosiy tuzatilgan kamchiliklar

- Sillaboslarning to'liqligi: 2022–2023 yilda 97% → 2023–2024 yilda 96% ga yetkazildi;
- O'tilmagan darslar: 3,7% → 3,9% – belgilangan norma 3%;
- Savollar banki mavjudligi: 76% → 78% – CAPA reja ijrosi natijasida;
- Intizomiy holatlar soni: 13 ta/oy → 13 ta/oy – profilaktik ishlar samarasi;
- D toifadagi kafedralar soni: 2 ta → 2 ta – maqsadli qo'llab-quvvatlash orqali.

X. YILLIK KOMPLEKS BAHOLASH NATIJALARI (100 BALLIK TIZIM)

10.1. Yo'nalishlar bo'yicha ball dinamikasi

Yillik kompleks baholash natijalarida universitetning umumiy reyting bali ikki yil mobaynida sezilarli o'sdi:

Yo'nalish	Maks. ball	2022–2023	2023–2024	O'zgarish
Ta'lim dasturlari va o'quv hujjatlari	15	11,1	11,1	-
O'qitish jarayoni va dars sifati	15	10,8	10,8	-
Talaba natijalari va akademik progress	15	11,2	11,3	+0,1
Baholash (imtihonlar) tizimi adolatliligi	10	7,2	7,2	-
Professor-o'qituvchilar salohiyati	10	6,5	6,5	-
Metodik ta'minot, HEMIS va raqamli resurslar	8	5,3	5,4	+0,1
Ilmiy-tadqiqotning ta'limga integratsiyasi	7	4,8	4,9	+0,1
Manfaatdor tomonlar qoniqishi	8	5,1	5,1	-
Akademik halollik va intizom	7	4,8	4,8	-
Resurslar va xizmatlar	5	4,1	4,1	-
JAMI	100	70,9 (C toifa)	71,2 (C toifa)	+0,3

2022–2023 yilda Universitet C toifasida (70,9 ball) – majburiy CAPA reja. 2023–2024 yilda C toifasida (71,2 ball) – barqaror, individual ko'rsatkichlarni yaxshilash rejasi.

XULOSA VA DINAMIKA TAHLILI

Qo'qon universiteti 2022–2024 yillar mobaynida o'quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilishni izchil va tizimli ravishda amalga oshirdi. Quyidagi asosiy natijalar qayd etildi:

Yo'nalish	Asosiy natija
Baholash davriyligiga rioya	2 o'quv yilida jami 24 ta monitoring sikli (oylik + semestrlik + yillik) belgilangan grafik asosida 100% bajarildi

Dars sifatini oshirish	Dars kuzatuvlari 201 → 232 taga o'sdi; o'rtacha ball 71,3 → 72,7; 75+ ball olgan o'qituvchilar 71% → 69%
Talaba natijalari	GPA 69,4 → 68,8 (-0,8%); akademik qarzidorlar 3,2% → 3,3%; kursdan kursga o'tish 94,2% → 93,8%
Manfaatdor tomonlar ishtiroki	So'rovnomalar qamrovi oshdi: talabalar 74% → 73%; ish beruvchilar 17 → 19 tashkilot
Nomuvofiqliklarni kamaytirish	Jami nomuvofiqliklar 39 → 36 taga kamaydi (-8%); katta nomuvofiqliklar 4 → 3 (-25%)
Umumiy reyting o'sishi	70,9 ball (C) → 71,2 ball (C) – universitetning sifat darajasi sezilarli yaxshilandi

Ushbu natijalar Nizomning to'liq va izchil ijrosi hamda barcha mas'ul bo'linmalar faol ishtiroki asosida erishildi. Keyingi maqsad – 2024–2025 o'quv yilida B toifaga (80+ ball) chiqish.